

2025-yil – “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili” IJODIY PARVOZ



2025-yil iyun № 6 (145) dismi.uz nashriyot@dismi.uz t.me/dismi_uz

O'ZBEKISTON DAVLAT
SAN'AT VA MADANIYAT
INSTITUTINING MA'NAVIY-MA'RIFIY,
ILMIY, IJTIMOYIY GAZETASI



Qalblarni to'liqlantirgan “Talaba-yoshlar ijodiyoti” ko'rik-festivali



O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida “Talaba-yoshlar ijodiyoti” ko'rik-festivali g'olib va sovrindorlarini tantanali taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi.

Taqdirlash marosimida institut rektori, professor Nodirbek Sayfullayev bitiruvchi-yoshlarga kelgusi faoliyatlarida omad tiladi hamda bugun yoshlarga keng imkoniyat yaratish, ayniqsa, bitiruvchilarni ish bilan ta'minlash Davlatimiz Rahbarining e'tiborlarida ekanligini, yoshlar ham bu

imkoniyatlardan unumli foydalanishlari, eng muhimi esa yurtimiz san'ati va madaniyati rivojiga munosib hissa qo'shishlari lozimligini alohida qayd etdi.

“Bu festival institutda ko'p yillardan buyon o'tkazib kelina-yotgan hamda talaba-yoshlarning o'ziga xos bayramiga aylanib

ulgurgan edi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Lekin oxirgi yillarda bu an'anadan biroz chekinish bo'lgan edi. Biz aynan bitiruvchi yoshlarni katta hayotga munosib kuzatish, iste'dodli yoshlarni rag'batlantirish, Yakuniy davlat attestatsiyasi jarayonlarini shunchaki oddiy imtihon kabi o'tishi emas, balki haqiqiy sog'lom raqobat va muloqot maydoniga aylantirish maqsadida bu festivalni tikladik”. – deya festivalning



ahamiyati haqida so'z yuritdi.

Joriy o'quv yilida O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutini 23 ta kunduzgi ta'lim yo'nalishida 464 nafar hamda 14 ta sirtqi ta'lim yo'nalishida 1050 nafar jami 1514 nafar talaba-yoshlar tugatdi.

Ushbu festivalda eng yaxshi deb topilgan hamda talabalik davrida o'zining namunali xulqi va bilimi, salohiyati, intiluvchanligi bilan tengdoshlariga o'rnak bo'l-

gan talaba-yoshlar hamda o'z faoliyati bilan institut va yurtimizda san'at va madaniyat sohalari rivojiga hissa qo'shib kelayotgan pedagoglar va xodimlardan jami 60 nafarga yaqini 35 nominatsiya bo'yicha taqdirlandi.

Taqdirlash marosimida konsert dasturi namoyish etilib, unda institut jamoasi tomonidan ijro etilgan kuy-qo'shiqlar hamda sahnaviy chiqishlar yig'ilganlarga bayramona kayfiyat ulashdi.



O'zbekiston madaniyati va san'ati

Yurtimizda azaldan noyob iste'dod egalari, san'atimizning mohir namoyandalari yashab keladilar. Ular o'zbek xalq san'atining nodir an'alarini asrab-avaylab, avloddan-avlodga yetkazib kelmoqdalar.

Xalqimiz qadimdan har sohada mohir va tadbirkor bo'lganligiga tarix guvoh. Zero, o'zbek san'ati tarixi ham uzoq o'tmishga bo'rib taqaladi. Xususan, musiqa, raqs, teatr, qo'shiqchilik, qiziqchilik va dorbozlik kabi san'atning turli sohalari ham rivojlangan. Ilk o'rta asrlarda san'at sohasida Buxoro qiziqchilari, Samarqand naychilari, Toshkent raqqos yigit va raqqosa qizlari bilan shuhrat qozongan. Choch raqqoslari ijro etgan mashhur “Choch raqsi”

yoki doira chertmasiga imo bilan yelka uchirib tushadigan o'ynoqi “Doira raqsi” Xitoy ayonlarini maftun etib, ularni hayratga solgan edi. Aslida, har qaysi davlatni dunyoga ma'lum va mashhur qiladigan soha sport, san'at va madaniyatdir. O'zbek sporti jahon arenalari yetarlicha mavqega ega. Xo'sh, o'zbek san'ati va madaniyatining o'rni bugun qay darajada?

Davomi 3-betda ➔

Bugungi
sonda:

Multfilm – BOLA, JAMIYAT Kichkintoyingiz qahramonini taniysizmi?

Biz bola tarbiyasiga multfilmlarning ta'sirini endigina anglab yetayotgan bir paytda, global media industriya bolalar ongi uchun kurashni avvaldan boshlab yuborgan. Agar bugun beparvo bo'lsak, ertangi avlod o'zligidan, ona tilidan, milliy qadriyatlardan uzoqlashgan, tarbiyasiz va hissiz voyaga yetishi

SURATLAR ORTIDAGI FIKR

Fotograf qanday bo'ladi? degan savolga, u ijodkor, voqeani his qiladigan va uni suratga ta'sirli tarzda tushiradigan; kuzatuvchan – mayda detallarni ham sezadigan va kadrda joylashni biladigan; texnik bilimli – fotokamera va uskunalarini yaxshi tushunadigan xususiyatga ega bo'lishi kerak.

MILLIY MADANIYATNING shaxs va jamiyat hayotidagi o'rni

Milliy madaniyat – bu xalqning ruhiy olami, tarixiy xotirasi va ijtimoiy birlik zaminidir. U shaxsni axloqiy, ma'naviy, estetik jihatdan kamolga yetkazadi, jamiyatni esa mustahkam, barqaror va taraqqiyot sari yetaklovchi kuchga aylantiradi.

ONAMGA

Sog'inch yuragimni
Yetaklab borsa,
Tanimay turmasmi
Bolalik xonam.
Nahot, bir umr
Pichirilab o'tsam,
Ko'zlariga boqib,
“Bechora onam!..”

2 ➔

5 ➔

7 ➔

8 ➔



Multifilm — BOLA, JAMIYAT

Kichkintoyingiz qahramonini taniysizmi?

Tadqiqotlarga ko'ra, bola besh yoshiga qadar qabul qiladigan axborot keyingi hayotidagi bilim va tajribalarning 80 foizini tashkil qilar ekan. Demak, dilbandlarimizning kichikligida qanday muhitda o'sishi, qaysi manbalardan bilim olishi yoki qay turdagi axborotga murojaat qilishi kelgusi taqdirini belgilashda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi.

Millatimiz bolalari bugungi multiplikatsion kontent orqali qaysi qadriyatlarni o'zlashtirmoqda? Ayni paytda ular sevib tomosha qiladigan multfilmlar nimalar haqida? Qahramonlari aqlli, mehribon, jasur va adolatparvarmi yoki aksincha — hayotga yengilqarash, beparvolik, zo'ravonlikni targ'ib qiladimi? Bundan yetarlicha xabardormizmi?

Bundan 5-10 yil ilgari o'smirlar tarbiyasiga kompyuter o'yinlari salbiy ta'sir o'tkazmoqda, degan fikr OAV va ijtimoiy tarmoqlar orqali ko'p bora ta'kidlangan. Jamoatchilik buning real xavfi haqida bong urgandi. Haqiqatan ham, o'sha paytlari o'yin marketpleyslarida zo'ravonlik, kuch ishlatar tizim yordamida g'alaba qozonishga undovchi kontent bemaza qovun urug'i singari ko'payib ketgan. Oradan vaqtlar o'tib, bu tashvishli holat sababchilari "yoshardi", aspekt ham o'zgardi. So'kong'ich, bog'chadagi guruhdoshlariga hukmini o'tkazadigan, muhitda mushtumzo'rlik qiladigan kichkintoylar safi kengaymoqda. Odob-axloq bir chetda tursin, ota-onasini senlaydigan, huda-behudaga inijlik qiladigan bolajonlar sizga ham tanishmi? Bunday xunuk holatlarga sabab nimada, deb o'ylaysiz? Ha, aynan — multfilmlar, bolalar media mahsulotlarida.

Bugungi kunda nafaqat teleekranlar orqali, balki ijtimoiy tarmoqlarda minglab multfilmlar, media kontent mahsulotlari jahonning turli burchaklarida ishlab chiqarilayotgani, turli mafkura va madaniy ko'rinishlarni o'zida mujassamlashtirayotgani hech kimga sir emas. Xususan, "Disney", "Pixar", "DreamWorks", "Nickelodeon" kabi multsanoat gigantlari kurrayi zaminda yashayotgan

yosh avlod ongini shakllantirmoqda, mahsulotlari yordamida muayyan g'oyalarni tarqatmoqda.

Tan olish lozimki, bugungi multfilmlar yosh avlodning katta qismini telefon yoki televizor pultiga uzoq vaqt hukmronlik qilishiga, ko'zlarini ekranga "mixlab", ongini rang-barang animatsiya olamiga "bog'lab" qo'yishga qodir. Aksiga olib, yosh ota-onalar, ba'zida katta yoshlilar ham "o'zi bilan o'zi chalg'ib o'tiradi, tinchiydi, ovunadi" degan noto'g'ri fikrda multfilmlarni tarbiyaviy vosita emas, balki ovunch sifatida qabul qilmoqda. Shundan bo'lsa kerak, hozirgi yosh avlod multiplikatsion kontent bilan shu qadar do'stlashib ketganki, bu holat XXI asr bolaligining ajralmas qismiga aylandi.

Zamonaviy multfilmlar ko'p hollarda bolaning irodasi, axloqiy pozitsiyasi va hatto milliy identifikatsiyasiga tajovuz qilmoqda. Agar ilgari multfilmlarda ota-onaga hurmat, yaxshi qo'shnilik, fidoyilik asosiy g'oya bo'lgan bo'lsa, hozircha shaxsiy erkinlik, individualizm, "mening haqqim" kabi g'oyalar bosh maqsadga aylandi. Masalan, "Sosomelon" tarmog'ida o'z vaqtida bir jinslilik targ'ib qilindi. Ikki erkak "farzandi"ga o'g'il yoki qiz bo'lishini o'zi tanlashi mumkinligini uqtirishadi. Jirkanch manzara. Xo'sh, bugun farzandi qo'lga bamaylaxotir telefon tutqazib

Bolalarning qiziqishini oshirish, ularni milily qadriyatlarga oshno etish oson ish emas, buning uchun juda aniq va maqsadli yondashuv, professional rejissura, yetuk psixologik tahlil va eng muhimi, milliy ruhga yo'g'rilgan g'oyali animatsion mahsulot bo'lishi kerak. Unutmaylik: millatimiz farzandlari chet el kontentini tomosha qilaversa, albatta begona g'oyalar, qarashlar ta'sirida ulg'ayadi. Bu esa ma'naviy xavfsizlikka bevosita va bilvosita bog'liq.

Manbalar asosida tahririyat xodimi A.SODIQOV tayyorladi

“DOLZARB 90 KUN”

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida Mirzo Ulug'bek tumani hokimligi bilan hamkorlikda mahalla yoshlari o'rtasida sportga bo'lgan qiziqishni oshirish, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida "Dolzarb 90 kun" dasturi doirasida "Rektor kubogi" sport musobaqalari o'tkazildi.

Musobaqalarda institutga yaqin joylashgan 20 dan ortiq Mahalla fuqarolar yig'inida istiqomat qilayotgan 300 nafardan ortiq yoshlar sportning mini futbol, voleybol, stol tennis, shaxmat, shashka, suzish turli bo'yicha bellashuvga kirishdilar.

Shuningdek, Mirzo Ulug'bek tumani yoshlar ishlari bo'limi rahbari Mehrinigor Nurhadjaeva boshchiligidagi barcha mahallalarning Yoshlar yetakchilari musobaqalarni kuzatib borishdi hamda institutda yoshlarga yaratilgan sharoitlar va imkoniyatlar bilan yaqindan tanishishdi.

Qiziqarli o'tgan bahslarda mahalla yoshlari yana bir bor o'z iqtidorlarini namoyon qilish imkoniga ega bo'lishdi.

Tantanali taqdirlash marosimi oldidan yangragan kuy-qo'shiqlar yoshlarga haqiqiy bayramona kayfiyat ulashdi.

Taqdirlash marosimida so'zga chiqqan institut rektori, professor Nodirbek Sayfullayev barcha yoshlarni yaqinlashib kelayotgan 30-iyun "Yoshlar kuni" munosabati bilan samimiy muborakbod etdi hamda bugun Davlatimiz Rahbarining e'tibor va g'amxo'rliklari natijasida yurtimizda



yoshlarni har tomonlama barkamol avlod bo'lib voyaga yetishlari uchun barcha imkoniyatlar yaratilganini alohida e'tirof etdi.

Shu bilan birga, yoshlarni bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishda ulkan ahamiyat kasb etayotgan "Dolzarb 90 kun" dasturi doirasida institutda ham ko'plab tadbirlar va musobaqalar tashkil etilayot-

gani, jumladan, bugungi mahalla yoshlari o'rtasida o'tkazilgan musobaqa ham shunday tadbirlardan bir ekanligini, kelgusida bu kabi musobaqalar muntazam tashkil etilishini hamda institutning sport maydonlari va inshootlari nafaqat institut talabalari, balki atrofdagi mahalla yoshlari uchun ham doimo ochiq ekanligini ta'kidladi.

qo'ygan ota-onalardan farzandining biri bu kabi videolarni ko'rmaganiga kim kafolat beradi?

Yaqinda "Marvel Studios" tomonidan e'lon qilingan "Sabra" animatsiyasi ko'plab bahslarga sabab bo'ldi. Bu multfilmda Isroil maxsus xizmatlari bilan bog'liq qahramon Sabra orqali Isroil pozitiv qahramon sifatida ko'rsatilsa, Falastin esa aksincha. Aslida bolalar ongiga genotsidni oqlash g'oyasini singdirish insonparvarlik tamoyillariga zid harakat, ya'ni bolalar ongida "agar bir xalq yo'q qilinsa ham, bu normal" degan xulosa shakllanishi nafaqat yosh avlod uchun, balki insoniyatning kelajagi uchun ham ulkan xavfli tendensiya hisoblanadi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda bolalar kontentlari va media mahsulotlarini berib boradigan asosiy tarmoq "Bolajon" va "Aqlvoy" telekanallari hisoblanadi. Bularning har ikkisi ham davlat tashabbusi bilan yo'lga qo'yilgan. Lekin bir ammosi bor. "Bolajon" telekanalida nisbatan filtrlangan chet el multfilmlari hamda milliy animatsiyalar namoyish etilsa-da, aksariyati eski, takror. "Aqlvoy" esa ma'lum ma'noda bolalarga axloqiy-estetik tarbiya berishda faol harakat qilmoqda.

Avvallari qo'g'irchoq animatsiyalarimiz, xalq ertaklariga asoslangan filmlarimiz bor edi. Ularning o'ziga xos estetikasi, badiiy yondashuvi, tarbiyaviy mazmuni ancha yaxshi bo'lgan. Ammo bugungi bolalar bu multfilmlarni eslamaydi. Chunki so'nggi yillarda ko'zga ko'rinadigan darajada yangi, jozibali, bolani o'ziga torta oladigan multfilmlar deyarli yaratilmadi. Milliy animatsiyamiz o'z vaqtida yetarlicha raqobatbardosh mahsulotlar bilan ichki ehtiyojni qondira olmadi. Mana shu chet el multfilmlarining o'zbek bolalari orasida mashhurligi ortib borayotganining asosiy sabablari hisoblanadi.

Bolalar auditoriyasiga mo'ljallangan multfilmlarning g'oyaviy mazmuni alohida tahlilga muhtoj. Ularda insonparvarlik, do'stlik, yordam, adolat kabi ijobiy qadriyatlar targ'ib qilinishi kerak. Afsuski, ko'plab xorijiy multfilmlar bolalarni befarqlikka, zo'ravonlikka, o'zaro hurmatsizlikka undaydigan ruhiy muhitni yaratadi.

Darhaqiqat, ilgari multifilm — ermak va bo'sh vaqtni mazmunli o'tkazish vositasi bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda u bolaning ongi, dunyoqarashi va axloqiy qiyofasini shakllantiruvchi eng ta'sirchan vositaga aylandi.

Buyuk ajdodlarimizning bolalik davrini bolalar ongiga tushunarli uslubda yetkazishni maqsad qilgan "Buyuk bobolarim bolaligi" turkumi doirasida Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Kamoliddin Behzod, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mirzo Ulug'bek tanlab olinib, ularning har biri bolalar uchun zamonaviy grafika, bolalar psixologiyasiga moslashtirilgan ssenariylar asosida hikoyaga aylanmoqda. Bundan tashqari, "Shiroq afsonasi", "Spitamen", "Chumchuqvoyni sarguzashtlari", "Qo'zichoq va Toychoq", "Aqlli qizaloq" kabi original obrazlar yaratilyapti.

Biz bola tarbiyasiga multfilmlarning ta'sirini endigina anglab yetayotgan bir paytda, global media industriya bolalar ongi uchun kurashni avvaldan boshlab yuborgan. Agar bugun beparvo bo'lsak, ertangi avlod o'zligidan, ona tilidan, milliy qadriyatlardan uzoqlashgan, tarbiyasiz va hissiz voyaga yetishi aniq.

O'zbekiston madaniyati va san'ati

➡ Boshlanishi 1- betda

Ko'pgina chet el mamlakatlarining xalqlari bizning milliy matolar-u, o'ymakor naqshinkorlik san'atimizga qiziqadilar. Chindan ham, milliy qadriyatlarimizdan biri sifatida bugungi kunda ustoz-shogird an'anasi sifatida avloddan-avlodga o'tib kelayotgan bu kabi san'at durdonalarimiz butun dunyoga ma'lum va mashhur. Buni mamlakatimizda o'tkaziladigan xalqaro festivallarda qatnashuvchi turistlar sonidan ham yaqqol sezish mumkin. Bundan ko'rinadiki, o'zbek nomi yangraganda, bizning milliy liboslarimiz kabi san'at asarlarimiz chet el xalqlari ko'z oldida gavdalanishi kundek ravshan. Bundan tashqari, o'zbek musiqa san'atining ham o'zgacha mavqeyi mavjud. Aytishlaricha, u yoki bu madaniyatni tushunish, xalqning hayoti va turmush tarzini his qilish uchun uning milliy ohanglarini tinglash kerak ekan. Mamlakatimizda xalq musiqasining Farg'ona-Toshkent, Buxoro-Samarqand, Surxondaryo-Qashqadaryo va Xorazm mahalliy uslublari mavjud bo'lib, har birining o'zgacha o'rni va roli mavjud. Ayniqsa, Toshkent va Farg'ona viloyatlarida katta ashula yoki patnis ashula (patnis bilan ijro etilgan qo'shiqlar) janrlari juda mashhurdir. Azaldan vodiy ahli san'atga shinavanda xalq. Eng mashhur, qo'shiqchi-yu, sozanda va qiziqchilarning ko'p qismi ham vodiy aholisi orasidan yetishib chiqqanligi barchamizga ma'lum. Jumladan, Lutfixonim Sarimsoqova, Tamara-xonim, Ma'murjon Uzoqov, Tavakkal Qodirov, Halima Nosirova shular jumlasidandir. Bugungi kunda, ayniqsa, o'zbek maqom va baxshichilik san'atini alohida o'rinda, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Mamlakatimizda madaniyat va san'at sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish bilan Madaniyat vazirligi shug'ullanadi. Madaniyat vazirligi tizimida Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi, Kinematografiya agentligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Madaniyat vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar madaniyat boshqarmalari, Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti, "O'zbekisirk" davlat muassasasi, "Iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash markazi" davlat muassasasi, "O'zbekteatr" davlat muassasasi, "Madaniyat ta'limi markazi" davlat muassasasi, O'zbek milliy maqom san'ati markazi, Baxshichilik san'atiga ixtisoslashtirilgan respublika maktab-internati, Buxoro, Farg'ona va Urganch maqom san'atiga ixtisoslashtirilgan maktab-internatlari, Respublika markaziy ko'zi ojizlar kutubxonasi, "O'zbekkonsert" davlat muassasasi, "Mukarrama Turg'unboyeva nomidagi "Bahor" davlat raqs ansambli" davlat muassasasi, "Xalqaro festivallar direksiyasi" davlat muassasasi, "O'zbekiston davlat filarmoniyasi" davlat muassasasi, "Xalqlar do'stligi" san'at saroyi, Islom Karimov nomidagi Farg'ona viloyati teatr va konsert saroyi, "Surxondaryo san'at saroyi" davlat muassasasi, "O'zbekiston davlat simfonik orkestri" davlat muassasasi, "Respublika baxshichilik san'ati markazi" hamda "Yusufjon qiziq Shakarjonov nomidagi respublika askiya va qiziqchilik san'ati markazi" davlat muassasalari, oliy ta'lim muassasalari va filiallari, qayta tayyorlash va malaka oshirish markazlari, professional ta'lim muassasalari, 42 ta professional teatr, 837 ta madaniyat markazi, 599 ta unvonga ega xalq ansambllari, 325 ta bolalar musiqa va san'at maktabi, 210 ga yaqin tuman (shahar) madaniyat bo'limlari hamda yana bir qancha madaniyat va san'at muassasalari faoliyat yuritmoqda.



TEATRLAR

Axloqiy qadriyatlar, inson va olamning mushtarakligi haqidagi yangicha tushunchalar, tarix va zamonaviylik bugungi o'zbek teatrini ko'proq o'ziga jalb etmoqda. Milliy teatr taqdiriga qiziqishning ortishi, hayotga yaqinlik, yangi tomoshabin avlodi teatr san'ati arboblari yangi izlanishlarga undamoqda. Davlatning qo'llab-quvvatlashi tufayli mamlakatimizda bugungi kunda 42 ta professional teatr va teatr studiyalar faoliyat ko'rsatmoqda. Har bir viloyatda qo'g'irchoq teatrlari, Farg'ona, Samarqand va Toshkentda rus drama teatrlari, shuningdek, musiqali teatrlar faoliyat ko'rsatmoqda.

Respublika teatr hayotida Toshkent alohida o'rin tutadi. Bu yerda mamlakat teatrlar va konsert saroylarining uchdan biri joylashgan bo'lib, ularda o'zbek va rus tillarida spektakllar namoyish qilinmoqda. Bugungi kunda aynan Toshkent shahrida Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston davlat akademik katta teatri, O'zbekiston davlat musiqali komediya (operetta) teatri, O'zbek Milliy akademik drama teatri, O'zbekiston davlat drama teatri, O'zbekiston davlat satira teatri, O'zbekiston davlat yosh tomoshabinlar teatri, O'zbekiston davlat yoshlar teatri, O'zbekiston davlat akademik rus drama teatri, Muqimiy nomidagi O'zbekiston davlat akademik musiqali teatri, O'zbek Milliy qo'g'irchoq teatri, "Diydor" yoshlar eksperimental teatr-studiyasi, "Tomosha" bolalar musiqiy teatr-studiyasi" kabilar shular jumlasidandir. Ushbu teatr badiiy va tashkiliy jihatdan tajriba maydoniga aylanganligini alohida ta'kidlash joiz. Bu teatrlarda o'zbek teatriining darg'alari o'z an'alariga sodiqligi bilan ko'zga tashlanib turadi.

MADANIYAT MARKAZLARI

Bugun yurtimizda 837 ta madaniyat markazlari va ularning qoshida 599 ta unvonga ega xalq ansambllari hamda 4 mingga yaqin 270 ta kurs tashkil etilgan bo'lib, qariyb 44 ming yoshlarni qamrab olgan. Ularda 2977 nafar to'garak rahbarlari faoliyat olib boradi. Madaniyat markazning asosiy maqsadi, O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish, aholiga madaniy xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash, ularning madaniy ehtiyojlarini qondirish va bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tishini ta'minlash, ijodiy jamoalarning milliy qadriyat, urf-odat va an'alarini o'zida mujassam etgan namunal dasturlarni shakllantirish, xalq ijodiyoti va badiiy havaskorlik san'atini saqlab qolish va rivojlantirish, turli xil to'garaklar, studiyalar, kurslar, qiziquvchilar klublari, badiiy havaskorlik jamoalarini tashkil etish va ularning faoliyat yuritishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Faoliyat olib borayotgan madaniyat markazlarining tashqi ko'rinishi bilan quyidagi rasm orqali tanishishingiz mumkin.

MODDIY MADANIY MEROS OBYEKTLARI

Madaniy meros agentligi tizimida respublika bo'yicha jami moddiy madaniy meros obyektlari soni 8210 tani tashkil etadi. Shundan:

Arxeologiya yodgorliklari – 4797 ta

Arxitektura yodgorliklari – 2266 ta

Monumental san'at yodgorliklari – 617 ta

Diqqatga sazovor joylar – 530 ta.

O'zbekiston madaniyati, Markaziy Osiyo xalqlarining ko'p asrlik an'analari va turmush tarzi bilan chambarchas bog'liq boy tarixga ega. Buyuk Ipak yo'lining chorrahasida joylashgan O'zbekiston hududida ko'plab me'moriy yodgorliklar, qadimiy qal'a va qasrlar, sirli va noyob tabiat yodgorliklari va folklor elementlari joylashgan bo'lib, ularning aksariyati hozirda YUNESKOning Butunjahon merosi obyektlari tomonidan muhofaza qilinmoqda.

Bugungi kunda YUNESKOning Butunjahon merosi obyektlari Reprezentativ ro'yatiga 4 ta me'moriy majmua – Xivadagi Ichan qal'a muzey-qo'riqxonasi (1990), Buxoroning tarixiy markazi (1993), Samarqandning tarixiy markazi "Samarqand – madaniyatlar chorrahasi" (2001), Shahrisabzning tarixiy markazi, shuningdek, Ugam-Chotqol milliy bog'i (2016) kabi madaniy meros obyektlari kiradi.



MUZEYLAR

O'zbekiston muzeylar soni esa 13 ta bo'lib, unda jami 2,16 million dona eksponatlar mavjud. Muzeylardagi eksponatlarning hududlar bo'yicha soni quyidagicha: *Qoraqalpog'iston Respublikasi* – 93,7 *mingta*; *Andijon* – 115,5 *mingta*; *Buxoro* – 134,6 *mingta*; *Jizzax* – 18,6 *mingta*; *Qashqadaryo* – 69,4 *mingta*;

Navoiy – 25,9 *mingta*; *Namangan* – 27,4 *mingta*; *Samarqand* – 150,3 *mingta*; *Surxondaryo* – 179,4 *mingta*; *Sirdaryo* – 2,7 *mingta*; *Toshkent* – 88,8 *mingta*; *Farg'ona* – 143,0 *mingta*; *Xorazm* – 40,3 *mingta*; *Toshkent sh.* – 1067,7 *mingta*.

Vatanimiz tarixi, xalqimizning ozodlik uchun kurash yo'li haqida aholining bilimini oshirishda muzeylarning o'rni muhim. Muzeylar tariximizni o'rganishga, kechagi va bugungi hayotni taqqoslab, jamiyatimiz taraqqiyoti haqida to'g'ri xulosa chiqarishga xizmat qiladi.

Mo'minmirzo XOLMO'MINOV, Xalq ijodiyoti fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari, "Madaniyat va san'at menejmenti" kafedrası dotsenti v.b.

O'ZBEKISTONDA KO'ZGA KO'RINGAN MUZEYLAR:

1. O'zbekiston davlat san'at muzeyi
2. O'zbekiston tarixi davlat muzeyi
3. Temuriylar tarixi davlat muzeyi
4. Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyi
5. Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi
6. O'zbekiston amaliy san'at va hunarmandchilik tarixi davlat muzeyi
7. "Shon-sharaf" davlat muzeyi
8. I.V.Savitskiy nomidagi Qoraqalpog'iston davlat san'at muzeyi
9. Imom al-Buxoriy xotira muzeyi
10. "Sarmishsoy" davlat muzey-qo'riqxonasi
11. Termiz arxeologiya muzeyi
12. O'zbekiston kino san'ati tarixi muzeyi

O'ZBEKISTONDA O'TKAZILADIGAN XALQARO FESTIVALLAR

Har qaysi xalqning azaliy tarixi va madaniyatini saqlab qolish, shu bilan birgalikda yurtini butun dunyoga tanitish, millatning o'zligini anglash, uning o'ziga xos milliy qadriyatlari va an'alarini saqlash va rivojlantirish, uni keng targ'ib qilish, yosh avlod qalbida ushbu san'at turiga hurmat va e'tibor tuyg'ularini kuchaytirish, turli xalqlar o'rtasidagi do'stlik va birodarlik rishtalarini mustahkamlash, ijodiy hamkorlik, madaniy-ma'naviy munosabatlar doirasini xalqaro miqyosda yanada kengaytirish maqsadida, yurtimizda quyidagi xalqaro miqyosdagi festivallar o'tkazilib kelinmoqda:

1. "Toshkent bahori" xalqaro opera va balet festivali
2. "Lazgi" xalqaro raqs festivali
3. "Boysun bahori" ochiq folklor festivali
4. Xalqaro zardo'zlik va zargarlik festivali
5. "Gullar bayrami" xalqaro gullar festivali
6. An'anaviy xalqaro etnofestival
7. "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivali
8. Xalqaro hunarmandchilik festivali
9. Xalqaro maqom san'ati anjumani
10. "Yevroosiyo" xalqaro teatr san'ati festivali
11. "Bahor nafasi" xalqaro san'at festivali
12. "Dunyo sadolari" xalqaro milliy estrada san'ati festivali
13. "Buyuk ipak yo'li" xalqaro musiqa folklor festivali
14. "Nurli navolar" xalqaro folklor festivali
15. Xalqaro baxshichilik san'ati festivali
16. Xalqaro kamer va simfonik musiqa festivali
17. "Xalqaro sirk san'ati" festivali

Xalqimizning hech bir kuni to'y-u tomoshalarsiz o'tmaydi. San'atga oshufta qalblar doimo o'lmas milliy qadriyatlar hamda san'atimiz va madaniyatimiz bilan yashaydi. Madaniyat va san'atga muhabbat, biz o'zbek xalqining qonida mujassamdir. Bizning maqsadimiz, mana shu yuksak madaniyat va san'atimizni asrab-avaylash, rivojlantirish hamda dunyoga yoyishdan iboratdir.

ZAMONAVIY IJTIMOYIY-MADANIY JARAYONLARDA O'ZBEK TEATRINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Jahonda yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, globallashuv hodisasi, turli madaniy transformatsiyalar, qadriyatlar evolyutsiyasi, insoniyat ongi va tafakkuridagi o'zgarishlar teatr san'atiga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Zero, teatr faqat san'at turigina bo'lib qolmay, ijtimoiy institut sifatida bevosita jamiyat hayotini ham aks ettiradi.

Dunyo teatrlarida sahnalashtirilayotgan spektakllar, xalqaro miqyosdagi festivallar, gastrol safarlari, forumlar, seminarlar, simpoziumlar va boshqa tadbirlar sahna san'atidagi ijodiy an'analarni yangilash bilan birga, millatlar o'rtasida do'stlik, birodarlik, baynalminal g'oyalar va ijtimoiy-madaniy aloqalarni mustahkamlashga ko'mak bermoqda. Xorij teatrlar shunosligida teatrning ijtimoiy-madaniy hodisalar bilan uzviy jihatlarini o'rganish, xususan, jamiyatda ijtimoiy muhitni shakllantiruvchi, axborot texnologiyalari davrida madaniy identifikatsiyani saqlovchi, yoshlarning ijtimoiylashuviga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omil sifatida tadqiq etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, globallashuv zamonida milliy o'ziga xoslik va qadriyatlarni asrab qolish, yosh avlodni turli tahdidlar va axborot xurujlaridan himoya qilish, milliy va umuminsoniy g'oyalarni targ'ib qilishda teatr san'atining ahamiyatini o'rganishga qiziqish kuchayib bormoqda.

Yangi O'zbekistonda milliy madaniyatning barcha sohalarini qo'llab-quvvatlash, ma'naviy-ma'rifiy islohotlarni chuqurlashtirish, badiiy san'at asarlari yaratish orqali xalqimiz, ayniqsa, yosh avlod ongiga ezgu g'oyalarni singdirishga jiddiy ahamiyat qaratilmoqda. "Jahondagi eng ommaviy va ta'sirchan san'at turlaridan biri bo'lgan teatr asrlar davomida odamlarni insoniylik va ezgulikka chorlab, ularning qalbida olib-janob fazilatlar, go'zal his-tuyg'ularni kamol toptirishga, jamiyat hayotida tinchlik, do'stlik va hamjihatlik, yuksak axloq va adolat tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qilib kelmoqda". Ushbu vazifalarni amalga oshirishda teatr san'atining ijodiy va ijtimoiy funksiyalaridan foydalanish ijobiy samara beradi.

Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev 2023-yilning 22-dekabr kuni Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishida teatr san'atiga ham alohida to'xtalib, "teatr san'atini rivojlantirish bo'yicha dastur ishlab chiqish, unda eng yaxshi pyesalar uchun ijodiy buyurtma berish, ijodiy va yordamchi xodimlarning chet el teatrlarida mahoratini oshirish, yosh rejissyorlarni qo'llab-quvvatlash uchun Mannon Uyg'ur nomidagi mukofot ta'sis etish, korxona va muassasalarda oyning bir kuni "Teatr kuni" deb belgilanib, xodimlarning teatrga borishlarini yo'lga qo'yish" singari muhim vazifalarni belgilab bergan edi. Shu talablardan kelib chiqib, teatrning jamiyat hayotidagi o'rnini oshirish,

ijtimoiy-madaniy aloqalarni mustahkamlashdagi ahamiyatini ochib berishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlari, uslubiyo'q'llanmalar yaratish zamonaviy teatrlar shunoslik fanining ustuvor vazifalaridan hisoblanadi.

O'zbek teatri tarixiga nazar tashlansa, barcha davrlarda ijtimoiy-madaniy jarayonlar sahna san'atiga bevosita ta'sir ko'rsatgani ayon bo'ladi. Xususan, o'tgan asrning boshlarida Turkistonda jadid ma'rifatparvarlarining sa'y-harakati va



tashabbusi bilan yozma dramaturgiya va Yevropa tipidagi professional teatrning vujudga kelishini ham shubhasiz, davrning o'zi taqazo qilgan edi. Boisi, mamlakatda hukm surgan ilmsizlik, ma'naviy qashshoqlik singari illatlarga chek qo'yish, Turkistonni jahonning eng ilg'or, taraqqiy etgan davlatlari qatoriga olib chiqish jadidlarning asosiy maqsadiga aylandi. Bu vazifani amalga oshirish uchun ular yangicha ta'limga asoslangan – "usuli jadid" maktablari, matbuot qatorida jonli va ta'sirchan san'at turi – teatrga ham murojaat qilishdi. Bu haqida jadid ma'rifatparvarlarining ulug' namoyandasi Mahmudxo'ja Behbudiy mashhur "Teyotr nador?" nomli maqolasida shunday yozadi: *"Teyotr nimadur? Javobig'a teyotr ibratnomadur, teyotr va'zxonadur, teyotr ta'zir adabidir. Teyotr oyinadurki, umumiy hollarni anda mujassam va namoyon suratda ko'zliklar ko'rub, kar-quloqsizlar eshitib, asarlanur. Xulosa: teyotr va'z va tanbih etguvchi hamda zararlik odat, urf va taomilni, qabih va zararini ayyonan ko'rsatguvchidir. Hech kimni rioya qilmasdan to'g'ri so'ylaguvchi va ochiq haqiqatni bildurguvchidir"*. Asr boshida Turkistonga gastrol safarlari bilan rus va qardosh millat teatrlari tez-tez tashrif

buyurar, tabiiyki, bu jarayon o'zbek ziyolilarining sahna san'atiga bo'lgan havasu ishtiyoqini kuchaytirardi. O'zimizda ham xuddi shunday, ehtimol undanda yuksak saviya va darajadagi teatr yaratish, millat ahvoli ruhiyati, dardu kechinmalarini sahnada ko'rsatish ziyoli qatlamning azaliy orzusi edi.

"Teatr san'ati azaldan xalq orzu-armonlarini, quvonchi va tashvishlarini, kurashini ifodalovchi san'at sifatida shakllangani ma'lum. Ammo, mustabid tuzum hukmronligi yillari davomida uni "zanjirband" etishga, yolg'on ideologiyaning jarchisiga aylantirishga zo'r berib intildilar. Buning natijasida milliy teatrimiz sahnasi uzoq yillar asosan "usti yaltiroq, ichi qaltiroq" g'oyalar va ularni targ'ib etuvchi yasama ijobiy qahramonlar maydoniga aylanib

keldi". Mustaqillik davri o'zbek teatri badiiy-g'oyaviy, ijtimoiy-mafkuraviy jihatdan ko'plab o'zgarishlarga yuz tutdi. Sovet davridagi sotsialistik realizm qoliplaridan xoli bo'lib, yangi mazmun, shakl va ifodalar bilan boyidi. Xususan, tarixiy shaxslarga munosabat va yondashuv tubdan o'zgardi, o'tmishdagi ulug' ajdodlarimiz haqida xolis va haqqoniy fikr yuritish imkoniyati tug'ildi. Bu esa teatr ijodkorlarini yanada ruhlantirib, turli mavzu va janrdagi yangi sahna asarlari yaratishga undadi. Anglashiladiki, jamiyatdagi yangi ijtimoiy-madaniy jarayonlar teatrning yangicha faoliyat yuritishini taqozo qiladi.

Istiqlol yillari mamlakatimiz teatrlarida tarixiy mavzudagi asarlarga e'tibor kuchaydi. Bu jarayon bevosita xalqimizning milliy qadriyatlari, tarixiy

Xulosa qilib aytganda, o'zbek teatri taraqqiyotining barcha bosqichlarida ijtimoiy-madaniy jarayonlarni sahna san'atiga bevosita ta'sirini ko'rish mumkin. Zero, har bir davrning ijtimoiy-siyosiy, g'oyaviy-mafkuraviy qarashlari adabiyot va san'atda o'z ifodasini topadi. Mamlakatimizga Yevropa tipidagi professional teatr san'ati kirib kelganidan to hozirgacha bo'lgan jarayonlarda sahna san'ati ijtimoiy-madaniy voqeliklar bilan uyg'unlikda rivojlangani, hukumat va jamiyat tomonidan muayyan missiyalarni bajargani, davr va millat tafakkuri uchun zarur g'oyalarni ilgari surganiga guvoh bo'lamiz. Bugungi kunda ham teatr san'ati orqali xalqimiz va yoshlarimiz ma'naviy olamini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetini shakllantirish va dunyoqarashini o'stirish davr talabidir.

Kamoliddin UMAROV,
"San'atshunoslik va madaniyatshunoslik" kafedrasini o'qituvchisi

xotirasini qayta tiklash, ulug' ajdodlarimizning jasorati, ilmiy-ma'rifiy merosini yuzaga chiqishi bilan bog'liq edi. Teatrlarimizda Spitamen, At-Termiziy, Imom Buxoriy, Al-Farg'oni, Umar Hayyom, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab, Nodirabegim, Ogahiy singari buyuk shaxslarga bag'ishlangan tarixiy spektakllar sahnaga qo'yildi. O'tgan davrda tarixiy mavzuda yaratilgan sahnaviy asarlar orasida tarixiy-biografik karakterdagilari son jihatdan yetakchilik qildi. Bunga sabab, avvalo, xalqning buyuk o'tmishdoshlari hayoti va faoliyatiga qiziqishi bo'lsa, ikkinchidan, buyuk allomalar yubileylari munosabati bilan hukumatimiz tomonidan chiqarilgan qarorlar ham bunga turtki bo'ldi. Ushbu yillarda tarixiy mavzuda respublika teatrlarida yuzdan ortiq asar sahnalashtirilganining o'zi fikrimizning isbotidir. Ayniqsa, dastlabki o'n yillikda tarixiy mavzu sahna san'atida yetakchi mavqeda bo'ldi.

Aynan 2024-yilning 22-noyabrida qabul qilingan "Teatrlarning jamiyat madaniy hayotidagi ahamiyatini oshirish va ular faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 399-sonli qarorda ham mamlakatimizda teatr san'atini yanada rivojlantirish, teatrlar faoliyatini takomillashtirish va ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, sohada ijodiy hamkorlik va erkinlikni ta'minlash, spektakllarning badiiy saviyasini oshirishni qo'llab-quvvatlash, shuningdek, budjet mablag'lari va boshqa resurslardan samarali foydalanish, sohaga jahon teatr san'atining ilg'or tajribalari va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish kabi masalalar muhim ekanligi belgilandi. 2025–2030-yillarda buyuk tarixiy shaxslarning ibratli hayoti va ijodi, ularning bolaligi hamda yoshligini ifodalovchi milliy qahramon obrazlari; insonning jamiyatdagi o'rnini va qadr-qimmatini targ'ib etuvchi "Inson qadri uchun" ezgu g'oyasi asosida yangi sahna asarlari yaratib borilishi respublika teatrlarining asosiy vazifalariga aylanishi ta'kidlandi.

Ibrat

"Teatr hech qanday absolyut haqiqatni tan olmaydigan isyonkor san'at. Jahonga mashhur sahna arboblarning kitoblarini mukka tushib o'qisangiz ham qandaydir teatral qolip yoki formulani topish amrimahol. Ba'zan elliginchi yillarning durdona spektakllarini ko'rib, oddiy taassurotdan bo'lak narsa ololmaysiz. Demak, mutlaq haqiqat yo'q, faqat maqsadga eltuvchi yo'llar bor".

Piter BRUK, rejissyor



Jek Londonning mashhur "Martin Iden" romani asosida ko'plab filmlar ishlangan. Ammo asar birinchi bor 1918-yil ekranlashtirilgan bo'lib, roman asosida "Pul uchun tug'ilmagan" nomli ovozsiz film tasvirga olingan. Filmning ssenariysini Jek Londonning o'zi va taniqli rus shoiri Vladimir Mayakovskiy yozgan. Filmda roman voqealari va makoni Rossiyaga ko'chirilgan, Martin Iden obrazi esa Ivan Novaga o'zgartirilgan va eng qizig'i, bosh rolni ham Vladimir Mayakovskiy ijro etgan. Ikkinchi jahon urushida, Leningrad qamali paytida film tag-tugi bilan yo'qolgan.

Bu film o'shandan beri oramizda yo'q.



SURATLAR ORTIDAGI FIKR

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti Dizayn fakulteti “Kompyuter grafikasi va badiiy foto” ta’lim yo’nalishi 3-bosqich talabasi, yosh san’at ixlosmandi Qodir Suhrob o’zining yangi ijodiy ishlari ko’rgazmasi Sergey Borodin uy-muzeyida tashkil etildi.



Zoya ARISLANBAYEVA,
“Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrası dotsenti

Hozirgi kunda texnik vositasini mukammal egallab olganimiz uchun fotosurat-kashlik bilan shug’ullanayotganlarning katta qismi bu kasbni egallash uncha qiyin emas deyidiganlar ham yo’q emas. Ammo, fotograf bu ishni ijodiy, kasbiy yoki havas sifatida amalga oshirishlarini bilishimiz kerak. Suratkash turli obyekt, inson, tabiat va voqealarni yoki predmetlarni fotokamera orqali tasvirlab berishining mashhaqqatli tomonlari ham mavjud. Sababi, uning **vazifalariga: obyekttni tanlash** – nimani suratga olish kerakligini aniqlash; **yoritishni to’g’rilash** – tabiiy yoki sun’iy yoritishni tanlash; **kompozitsiya yaratish** – kadrni chiroyli va ta’sirli qilish; **suratga olish texnikasidan foydalanish** – professional kamera, obyektivlar, shtativ va boshqa uskunalarni ishlatish; **suratlarni tahrirlash** (montaj/re-tush) – fotolarni Lightroom, Photoshop va shunga o’xshash dasturlar orqali yaxshilashni mukammal bilishlari shart.

Foto ko’rgazma – bu fotograf tomonidan olingan suratlarni ommaga namoyish qilish uchun tashkil qilingan ko’rgazmadir. U turli mavzularda, turli maqsadlarda o’tkazilishi mumkin va tomoshabinlarga ma’lum bir his, g’oya yoki ma’lumotni yetkazishni maqsad qiladi.

Fotograf qanday bo’ladi? degan sa-

volga, u ijodkor, voqeani his qiladigan va uni suratga ta’sirli tarzda tushiradigan; kuzatuvchan – mayda detallarni ham sezadigan va kadrda joylashni biladigan; texnik bilimli – fotokamera va uskunalarni yaxshi tushunadigan xususiyatga ega bo’lishi kerak.

Fotograflar qayerda ishlaydi? degan savolimizga yosh ijodkor talaba Suhrobjon studiya va shaxsiy ijodiy loyiha yaratishni maqsad qilgan. Yosh iqtidor sohibining ijodiy izlashlari sirli badiiy bo’yoqlardan foydalangan holda “Tasvirlar - daryo” nomli ko’rgazma tayyorladi. Tadbir Sergey Borodin uy-muzeyida Mirzo Ulug’bek tumani “Lashkarbegi” mahalla fuqarolar yig’ini faollari, O’zbekiston davlat san’at va madaniyat institutining “Folklor va etnografiya” kafedrası dotsenti Bibiaysha Kudaybergenova, “Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrası dotsenti Zoya Arislanbayeva hamda OAV vakillari ishtirokida 2025-yilning 29-30 may kunlari bo’lib o’tdi.

Qodirov Suhrobjon ko’pgina fotosuratlarni qiziqarli rakurslarda suratga olish muvaffaqiyatiga erishgan ijodkor. Ayniqsa, uning o’qiyotgan ta’lim dargohiga ustozlaridan o’rgangan kompyuter dasturlari orqali, uning ijodiy ishlari yanada sayqalanib, jozibali ko’rinishlarga ega bo’ldi, desak mubolag’a bo’lmaydi. Jumladan, “Siqilgan



boshliq” asarida asosiy rangli bo’lgan binolarning, tahrirlash jarayoni bilan aks ettirilishi, Adobe Photoshop dasturi orqali oq-qora holatda rasmga olingan asar o’zining jozibali ko’rinishi bilan tomoshobinlarning diqqat e’tiborini o’ziga jalb qila oldi. Ushbu asarlarning kompozitsiyasini boyitish maqsadida, xarakatdagi inson va uchayotgan qushlar tasviri o’ta chiroyli joylashtirilgan.

Bu asarlarning tomoshobinlarga o’zga-cha zavq ulashdi. Tomoshabinlar bir-biri bilan fikr almashishi, ko’rgazmaning qiziqarli o’tishiga sabab bo’ldi. Bu asarlar, na-faqat badiiy taassurotlar olishga chorladi, balki ularni falsafiy tahlil qilishga, turli his-tuyg’u va fikrlashga undashi, ilhomlantirishi, hamda faol harakatga chaqirishi aniq. Ayniqsa, yosh avlod vakillari suratkashlik kasbiga qiziqish bildirib, tasviriy san’at ta’lim muassasasini tanlashlariga undadi desak, yanglishmaymiz.

Demak, bunday ijodiy ko’rgazmalardagi o’zgarish va harakatga chorlash natijasida, jamiyatimizdagi ijtimoiy muammolarga e’tibor qaratib, yechim topishga undashi aniq. Masalan, kelajakda ekologik muammolar bo’yicha foto ko’rgazma tashkil etilsa, odamlarni isrofgarchilikka yo’l qo’ymaslikka chorlaydi.

Foto ko’rgazma – bu surat orqali jim turib so’zlashish. U inson qalbiga ta’sir qilish, ijtimoiy ongini oshirish, his-tuyg’u uyg’otish va amaliy o’zgarishlarga chorlash salohiyatiga ega.

Foto ko’rgazma nimalarga undashi mumkin? – degan savolga quyidagicha javob berish mumkin:

1. *Ijodiy ifodaga undaydi* – fotosuratlar orqali inson o’z hissiyatini, fikrini, dunyoqarashini boshqalarga yetkazishni xohlaydi.

Bu boshqalarni ham ijod qilishga, o’zini ifoda etishga ilhomlantiradi.

2. *Odamlarda fikr uyg’otish* – masalan, tabiatni muhofaza qilish, inson huquqlari, ijtimoiy muammolar kabi mavzulardagi fotoko’rgazmalar odamlarni o’ylashga, harakatga kelishga undashi mumkin.

3. *His-tuyg’ularni uyg’otish* – foto suratlari oddiy so’z ayta olmaydigan tuyg’ularni – qayg’u, tanishlik, yodlarni ko’rsatishi mumkin. Bu esa, tomoshabinlarda hissiy taassurot qoldiradi.

4. *O’zgarishga chorlash* – masalan, kambag’allik, muhit ifloslanishi yoki migratsiya haqidagi fotolarni ko’rgan inson o’sha muammoni yechish uchun qandaydir harakatga kelishni xohlashi mumkin.

5. *Estetik bahra olish* – fotoko’rgazma san’at sifatida odamlarga go’zallikni his qilish, zavq olish imkonini beradi.

6. *Ilhomlantirish va motivatsiya* – qahramonlar, sportchilar, oddiy odamlarning yutuqlari aks etgan fotosuratlar boshqalarni ham harakat qilishga undaydi.

Demak, xulosa qilib, aytganda, Qodirov Suhrobjon tomonidan tayyorlangan foto-ko’rgazma: texnik jihatdan: har bir yo’nalish o’zining maxsus texnikasi va obyektivlarini aks ettirilishi; estetik jihatdan: yoritish, kompozitsiya, rang ohanglariga bo’lgan yondashuvning o’zgachaligi; ta’sirchanlik darajasidan: ba’zi tomoshabinlari emotsiyaga berilishi, ayrimlarning aniq ma’lumotlar izlashi, kimnidir esa, fikrlashga chorlashi kuzatildi.

Suhrobjonga muvaffaqiyatlar tilagan holda, uning erishgan yutuqlari uchun Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti rahbariyati hamda Sergey Borodin uy-muzeyi direksiyasi tomonidan taqdirlandi.

Kitobxonlar yuzti

Farg’ona viloyatida 14-17-may kunlari “Central Asia – 2025 fan, ta’lim, madaniyat va biznesda Internet va axborot-kutubxona resurslari” deb nomlangan XVIII xalqaro konferensiyasi bo’lib o’tdi.

14-may kuni Farg’onada birinchi xalqaro kitobxonlik festivalining ochilish marosimi bo’lib o’tdi. Usbu festival Farg’ona shahridagi Kashtanzor ko’chasida tashkil qilindi. Unda viloyat hokimi Xayrullo Bozorov, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi direktori Asadjon Xodjayev, Alisher Navoiy nomidagi O’zbekiston Milliy kutubxonasi direktori Umida Teshaboyeva, shuningdek, 12 ta davlatdan kelgan mehmonlar, ziyolilar, kitobsevarlar, keng jamoatchilik ishtirok etdilar. Ushbu xalqaro kitobxonlik festivali uchun juda katta tayyorgarlik ko’rilgani va mutasaddilarning sa’y-harakatlari samarasi yaqqol ko’zga tashlanib turganligi, barchada o’zgacha taassurot qoldirdi.

Tashrifimizning ikkinchi kunida Farg’ona davlat universitetining “Ma’naviyat va ma’rifat” markazida tantanali kutib olishdi. “Central Asia – 2025” xalqaro konferensiyasining ishtirokchilariga maxsus beyjklar va esdalik sovg’alari tarqatildi. Shundan so’ng “Central Asia – 2025” fan, ta’lim, madaniyat va biznesda internet va axborot-kutubxona resurslari XVIII Xalqaro konferensiyasining yalpi majlisi bo’lib o’tdi.

Dasturga muvofiq kunning ikkinchi yarmida axborot-kutubxona sohasi rivojiga munosib hissa qo’shgan, jamiyatda mutolaa madaniyati, kitobxonlikni keng targ’ib qilish va yosh mutaxassis kadrlar tayyorlash borasida samarali mehnat qilgan, ish faoliyatida yuqori natijalarga erishgan bir qator soha mutaxassislarini “Axborot-kutubxona a’lochisi” ko’krak nishoni bilan taqdirlash marosimi bo’lib o’tdi.

16-17-may kunlari Ahmad al-Farg’oni nomidagi viloyat axborot-kutubxona markazida bo’ldik. Kutubxonada rejalashtirilgan sho’balarda eng dolzarb mavzulardan axborot-kutubxona xizmati samaradorligini oshirishga qaratilgan konfresiyalar, ilmiy anjumanlar, muhokamalar o’tkazildi. Ushbu sho’balar online hamda offline tashkil qilindi. Axborot-kutubxona markazlarida milliy kutubxona tizimidagi axborot kutubxona markazlarining mutaxassislari bilan tahliliy-tanqidiy taqdimot bo’lib o’tdi va barcha markazlar faoliyati o’rganildi.

Konfrensiyada ushbu so’zlar mening e’tiborimni tortdi “Farg’ona kitobxonalarni sevadi” ushbu jumalarni o’qir ekanman, kitobxonalarni qanchalik hurmat va e’tiborga loyiq ekanligini yana bir bor his qilim.

Shu o’rinda o’zlarining shaxsiy kutubxonalarni ochib faoliyat yuritayotgan yutrdoshlarimizning bosib o’tgan yo’lini o’rnak sifatida film qilib namoyish etilgani ham biz kutubxonachilarga bo’lgan bir e’tibor ekanligidan g’ururlandim.



Munira RAXIMOVA,
Kutubxona – axborot faoliyati
yo’nalishi (sirtqi)
4-bosqich talabasi

Viloyat hokimi boshchiligidagi kutubxonalarga va kitobxonlikka e’tibor qaratilgani sohani rivojiga beqiyos hissa qo’shilganini ko’rsatib turibdi. Men ham kelajakda farg’onalik fidoyi kutubxonachilar qatorida o’zimning shaxsiy kutubxonamni ochishni va ona xalqimizning kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga hissa qo’shishni niyat qildim. Ushbu xalqaro konfrensiyada ishtirok etganimdan juda mamnunman.



YAXSHI ODAMLAR

Yaxshilikni yomonlik bilmas yaxshi odamlar,
Yaxshilikka yomonlik qilmas yaxshi odamlar,
Foyda yoqar bol kabi, ziyon zahardan achchiq,
Nomi mangu yashaydi, o'lmas yaxshi odamlar.

Ko'r-ko'rona ish qilmas, qilgan ishi savobdir,
Ota-ona poyiga qilganlari tavofdir,
Yaxshilarga xushsuxan doim hozirjavobdir,
Yaxshilikka yomonlik qilmas yaxshi odamlar.

Haq yo'lida haq so'ylar el-ulusga xush zabon,
Do'stayolu do'st o'ylar yurtida el dorilomon,
Yaxshiligi yaxshidir yomonlik qilmas hamon,
Yomonga ham yomonlik qilmas yaxshi odamlar.

Dunyo topsa yarmini bo'lishadi yaxshi-da,
Yaxshi bilan do'st bo'lib kelishadi yaxshi-da,
To'kilmaydi dasturxon to'lishadi yaxshi-da,
Yomonga ham yomonlik qilmas yaxshi odamlar.

Doniyor Mirzo havas qil, hasad elni o'ldirar,
Hasad zaqqum misoli qizil gulni so'ldirar,
Yaxshilik qil, yomonlik paymonangni to'ldirar,
Yaxshilikka yomonlik qilmas yaxshi odamlar.

IJODKOR TALABALAR

Ilm olib biz yoshlar,
Quchamiz g'alabalar.
Bo'lajak san'atkoru,
Dramaturg talabalar.

Talabaga o'xshamay,
Yashashimiz shohona.
Gohda darsga kech qolsak,
Topilmaydi bahona.

Dilda ilhom qaynasa,
Olamiz qo'lga sozni.
Qo'shiq aytib yurakdan,
Shod etamiz ustozni.

Birimiz rol o'ynasak,
Birimiz aytib o'lan.
Quchoqlashib yotamiz,
Kechasi kitob bilan.

Talabaga xos odat,
Dars payti tutib ro'za.
Tinglagaymiz ustozdan,
Har parada ma'ruza.

A'lo o'qib biz yoshlar,
Quchamiz g'alabalar.
Bo'lajak jurnalisti,
Ijodkor talabalar.

SINOV

Hayot sinov uchun berilgan tekin,
Biz elni tartibga chorlash payida.
Ko'ngillar islohga muhtaju, lekin,
Odamlar ahmoqmas, aqli joyida.

Xudo omad bergan, baxt bergan zotni,
Hamon ko'rolmaymiz, toshlar otamiz.
Yaratgan – yasha, deb bergan hayotni,
G'iybat, g'urbat bilan yashab o'tamiz.

O'ZINGDAN KETMA

Tomiring suvlarga yetgan bo'lsa ham,
Otang dunyoni kashf etgan bo'lsa ham,
Davrug'ing jahonga ketgan bo'lsa ham,
O'zingdan ketmagin, o'zingdan ketma.

Yer yuzi kaftingda kapalak emas,
Poyingda parilar jon halak emas,
Xo'randa bo'lsang ham yoki non yemas,
O'zingdan ketmagin, o'zingdan ketma.

Ma'rifat, muhabbat ildizing bo'lsin,
Baxt sening charog'on yulduzing bo'lsin,
Yog'dudan yorug'roq chin so'zing bo'lsin,
O'zliging unutma, o'zingdan ketma.

Moziydan miltirab yangrar sadosi,
Kim boylik gadosi, qismat gadosi,
Kim Vatan gadosi, ko'ngil adosi,
O'zliging unutma, o'zingdan ketma.

KORRUPSIYA – YOMON ILLAT

Korrupsiya degan zahar-zaqqum bordir,
Poraxo'rlik ildizini yoqqum bordir,
Men shoirman, she'r yozmoqqa haqim bordir,
Korrupsiya qonga tushgan yomon illat,
U ko'karsa, ko'karmaydi hech bir millat.

Halollik bu – ildiz otsa otsin ekan,
Beshigida go'daklar tinch yotsin ekan,
Quyosh ko'kda joyiga tinch botsin ekan,
Korrupsiya qonga tushgan yomon illat,
U ko'karsa, ko'karmaydi hech bir millat.

Korrupsiya ko'kayingni kessa yomon,
Ajriqday ildiz otsa, o'ssa yomon,
Adolatning tamoyilin buzsa yomon,
Korrupsiya qonga tushgan yomon illat,
U ko'karsa, ko'karmaydi hech bir millat.

Tarbiya bu – qalbdagi urur – ma'naviyat,
Ori baland elda ustun erur uyat,
Halollik bu – san'at, poklik – madaniyat,
Korrupsiya qonga tushgan yomon illat,
U ko'karsa, ko'karmaydi hech bir millat.

Korrupsiya ildizini qirqadi qil,
Gultuvakda gullayotir nastarin gul,
Haq oldida ulug'lanar pok niyat el,
Korrupsiya qonga tushgan yomon illat,
U ko'karsa, ko'karmaydi hech bir millat.

Korrupsiya yuzing shuvut qilib qo'yar,
Tamagirlar bir-birining ko'zin bo'yar,
Och nigohlar, qing'irlikka qachon to'yar?!
Korrupsiya qonga tushgan yomon illat,
U ko'karsa, ko'karmaydi hech bir millat.



DONIYOR MIRZO,
IQTIDORLI TALABALARNING ILMIY-
TADQIQOT FAOLIYATINI TASHKIL
ETISH BO'LIMI BOSHIG'I,
O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR
UYUSHMASI A'ZOSI

IKKI ZAMON QISSASI

Nega bilmam, nimadir qilsam,
Qitmirligim tutib ketadi.
Ko'ztumorim ko'ktovga ilsam,
Bari birdan o'tib ketadi.

Odam pora olib, qorni to'q,
Molu mulki bitib ketadi.
Nohaqlikning kelajagi yo'q,
Qachondir yer yutib ketadi.

Mittivoyini multiqday odam,
Qo'lchasidan tutib ketadi.
Qornim ochdi, dedi, bolakay,
Bir pas chida, o'tib ketadi...

Nonga puli yo'q edi ota,
Uni mirshab tutib ketadi.
Bola yolg'iz yig'lab yuribti,
Hamma jim-jit o'tib ketadi.

Yordam kerak bolaga axir,
Otasini kutib netadi.
Har dam ko'zi yo'lida, intizor,
Otasini kutib o'tadi.

Xalq dushmani deya, otasin,
Sibrlarga surgun etadi.
Kuta-kuta bola bechora,
Bir umr qon yutib o'tadi.

Qanday yillar edi u zamon?!
Bola mehrin tutib o'tadi.
Ota qaytsa – bola ochlikdan,
Bu dunyodan o'tib ketadi.

Endi ota farzand dog'ida,
Umrbod qon yutib o'tadi.
Qamalgandi yoshlik chog'ida,
Bu odam baxt kutib o'tadi.

Endi zamon o'zgardi, illo,
Non hammaga yetib ketadi.
But-butun non yerda yotsa ham,
Odam olmay o'tib ketadi.



MILLIY MADANIYATNING SHAXS VA JAMIYAT HAYOTIDAGI O'RNINI

Shaxs bilan jamiyatning o'zaro munosabatlari turli tarixiy davrlarda turlicha bo'lib, shaxs madaniyati jamiyat madaniyatini belgilaydi va shaxs madaniyati ham o'z navbatida muayyan bir jamiyat madaniyatida shakllanadi. Har bir jamiyat shaxs qadriyatlarini belgilaydi va shaxsning ma'naviy ehtiyojlarini ta'minlaydi. Jamiyat bilan shaxsning o'zaro munosabati, shaxsning erkinligi, uning huquq va burchlari, insoniy qadriyatlar haqidagi muammo barcha tarixiy davrlardagi muhim masala hisoblangan.

Milliy madaniyat har bir xalqning tarixiy rivojlanishi, urf-odat, tili, diniy e'tiqodi, san'ati, axloqiy me'yorlari va boshqa ijtimoiy hodisalar majmuidan iborat bo'lib, u jamiyat hayotining barcha jabhalarida o'z aksini topadi. Milliy madaniyat orqali inson o'zligini anglaydi, jamiyat esa o'z o'rnini, o'zaro tushunishini, barqarorligini saqlab qoladi. Shu sababli, milliy madaniyat shaxs tarbiyasida va jamiyat taraqqiyotida muhim o'rin egallaydi. Zero, *"Milliy madaniyat – bu avvalo xalqning o'z tarixiy xotirasi, ma'naviy dunyosi, tafakkur tarzi va hayot falsafasining ifodasidir"*. U xalqning asrlar davomida to'plagan boy tajribasini, urf-odat va an'analarini, axloqiy mezonlarini, orzu-umidlarini, qalb hayajonlarini o'zida mujassam etadi. *"Agar biz yosh avlodni yuksak ma'naviyatli, vatanparvar, milliy g'urur va o'zligiga ega insonlar etib tarbiyalamoqchi bo'lsak, u holda milliy madaniyatimizni chuqur o'rganishimiz va uni hayotimizning ajralmas qismiga aylantirishimiz lozim"*. Aytib o'tish joizki, madaniyat – ijtimoiy hodisa bo'lib, jamiyat bilan birgalikda kelib chiqqan. Madaniyat va jamiyat kishilar ijtimoiy faoliyatining birgalikdagi nobiologik shakli bo'lib, bir-birisiz mavjud bo'la olmaydi. Ular o'rtasidagi mustahkam aloqadorlikdan tashqari muayyan farqlar ham mavjuddir. Shaxs madaniyatning shakllanishida jamiyat madaniyatining quyidagi tizimlari ahamiyatlidir.

Siyosiy madaniyat: kishilarning siyosiy ongi, manfaatlar, e'tiqodlari, maqsadlarini ifodalovchi siyosiy-huquqiy g'oyalar maj-

mui bo'lib, ma'naviy qadriyatlarning maxsus tizimini tashkil qiladi. Bu madaniyat tarixiy taraqqiyot bosqichlarida jamiyatning ijtimoiy tabaqalari manfaatlar bilan bog'liq holda vujudga kelib, jamiyat siyosiy faoliyatiga uzviy bog'liq. Siyosiy madaniyat, siyosiy faoliyat sifatida, ya'ni insonlar faoliyatidagi tabiatni qayta yaratish va o'zlarini tarbiyalash jarayonlarini qamrab olib, "siyosiy ishlab chiqarishni" aks ettiradi.

Iqtisodiy madaniyat – tushunchasida iqtisodiy bilimlar fikrlar uslubi bilan faol ishlab chiqarish, iqtisodiy faoliyat o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik omillari namoyon bo'ladi. Iqtisodiy madaniyat mazmunida, madaniyat va iqtisodning o'zaro ta'sir xususiyatlari mavjud bo'lib, tarkibiga iqtisodiy ong, iqtisodiy faoliyat, iqtisodiy munosabatlar kiradi.

Axloqiy madaniyat – jamiyat, sotsium, individlar tomonidan axloqiy kamolot me'yorlariga erishish darajasidir. Kundalik turmushda, kishilar faoliyatida amal qiladigan va o'zlashtiradigan axloqiy qadriyatlar, axloqiy kamolot me'yorlari bilan bog'liqdir. Axloqiy madaniyat tarkibiga axloqiy ong, axloqiy munosabat va axloqiy faoliyat kiradi.

Estetik madaniyat – insonning ma'naviy, hissiy faoliyati bilan bog'langan munosabat va qadriyatlar tizimini ifodalaydi. Estetik madaniyat sohasi insonning tevarak atrofini o'rab olgan voqelikka nisbatan bo'ladigan munosabatida o'zini erkin namoyon etishdir. Bu erkinlikning mohiyati shundaki, inson predmetga, uning jinsi va turiga mos me'yorni topib gavdalanitiradi, uni qayta ishlaydi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda xalqimizning ma'naviy-ma'rifiy saviyasini yuksaltirish, madaniyat va san'at muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, soha vakillarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu jumladan, hozirgi vaqtda madaniyatning innovatsion tarkibiy qismining ahamiyatiga katta e'tibor qaratilishi, Yangi O'zbekistonning bosh maqsadiga aylandi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev: *"Mamlakatimiz aholisi, avvalo yoshlar, qalbida amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik hissini kuchaytirish, shu yo'nalishdagi ma'naviy-ma'rifiy ishlarning ta'sirchanligini yanada oshirishimiz zarurligi davr talabiga aylanib bormoqda"*, – deya ta'kidlab o'tgan edi.

Milliy madaniyatning boshqa bir o'ziga xos jihati – bu uning integrativ funktsiyasidir. U ijtimoiy guruhlar o'rtasida umumiy qadriyatlar zaminida hamjihatlikni ta'minlaydi. Har qanday jamiyatda turli ijtimoiy tabaqalar, etnik guruhlar mavjud bo'lsa-da, yagona madaniy maydon – milliy madaniyat ularni yagona jamiyatga birlashtiradi. Shaxsiy rivojlanish nuqtayi nazaridan qaraganda, milliy madaniyat insonga o'z ildizini anglash, o'z ajdodlari bilan g'ururlanish, o'ziga bo'lgan ishonch va iftixor hissini beradi. Bu psixologik jihatdan barqarorlikni, ijtimoiy faollikni kuchaytiradi. Shaxs o'zligini tanib olgan sayin, u boshqa madaniyatlarni ham hurmat qila boshlaydi. Demak, milliy madaniyat xalqaro totuvlikka ham zamin yaratadi.

Madaniyatlararo muloqotda o'z milliyligiga tayanmagan shaxs boshqalarning qadriyatlarini tushunishga qiynaladi.

Xulosa qilib aytganda, milliy madaniyat – bu xalqning ruhiy olami, tarixiy xotirasi va ijtimoiy birlik zaminidir. U shaxsni axloqiy, ma'naviy, estetik jihatdan kamolga yetkazadi, jamiyatni esa mustahkam, barqaror va taraqqiyot sari yetaklovchi kuchga aylantiradi. Globallashuv, texnologik taraqqiyot va madaniy o'zgarishlar fonida milliy madaniyatni asrash, unga zamonaviy ifoda topish, yosh avlod qalbiga singdirish har bir jamiyatning strategik vazifasi bo'lib qoladi.



Naima BOYQOBILOVA,
Madaniyat va san'at sohasi menejmenti mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

ladi. Madaniyat faqatgina qadimiy obidalar, kiyim-kechak, raqs yoki xalq og'zaki ijodi emas, balki u doimiy harakatdagi, o'zgaruvchan, lekin uzviylikni saqlovchi jarayondir. Demak, uni asrash degani – uni konservatsiya qilish emas, balki zamonga mos holda rivojlantirish, yoshlar tafakkuriga yaqinlashtirish, har bir davrga mos timsollar orqali ifodalash demakdir.

Ta'lim tizimi milliy madaniyatni targ'ib qilishda asosiy vositadir. Boshlang'ich sinflardan bolaga o'z yurtiga, tiliga, tarixi va qadriyatlariga bo'lgan muhabbat uyg'otilsa, bu butun umrlik madaniy immunitetni shakllantiradi. Shu ma'noda, darsliklar, badiiy adabiyotlar, teatr va kino asarlari, musiqa, bolalar o'yinlari, xalq ertaklari kabi vositalar muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir bola, har bir o'quvchi avvalo o'z madaniy ildizlaridan quvvat olishi kerak.

"ILMIY FANTASTIK JANR VA SHU JANRDA KINOOPERATORLIK USLUBI"

Ilmiy fantastika – kinoda eng mashhur va ommabop janrlardan biri bo'lib, u tomoshabinga real hayotdan uzoq, ammo ilmiy asosga ega bo'lgan voqealarni tasvirlaydi. Bu janr nafaqat kelajak texnologiyalari, balki fazoviy sayohatlar, boshqa olamlar, sun'iy intellekt va insoniyat taqdiriga oid falsafiy savollarni ham o'z ichiga oladi. Aynan shuning uchun dramaturgiya, ya'ni syujet qurilishi juda murakkab va puxta o'ylangan bo'lishi talab qilinadi.

"Ilmiy fantastika" termini birinchi marotaba 1920-yilda amerikalik muharrir Xugo Gernsbek tomonidan ommalashtirilgan. U 1926-yilda "Amazing Stories" nomli jurnalida bu janrni "scientifiction" deb atagan. Bu so'z "scientific" (ilmiy) va "fiction" (fantastika) so'zlarining birikmasidan olingan. Gernsbek bu janrni ilm-fan asosida yaratilgan fantastik hikoyalar sifatida ta'riflagan.

Ilmiy fantastik filmlarda operator ishini ahamiyati nihoyatda yuqori. Chunki voqealar aksariyat hollarda real hayotda mavjud bo'lmagan makon va zamonda kechadi. Shu bois, operator o'z kamerasi orqali tomoshabinni ushbu g'ayritabiiy olamga ishonitirishi, unga ishonch uyg'otishi kerak bo'ladi. Bunda kadrlarning yoritilishi, rakurslar tanlovi va harakat dinamikasi muhim rol o'ynaydi.

Operator – tomoshabinga ko'rinmaydigan, biroq hissiy jihatdan nihoyatda kuchli olamni taqdim etishi kerak. Rejissyor Christopher Nolanning "Interstellar" filmi bizga bu

borada a'lo darajada namuna bo'la oladi.

Operator sifatida fantastika janriga yondashuv oddiy emas. Bu yerda realizm bilan o'ylab topilgan to'qima obrazlar orqali butun boshli olamlar yaratiladi. "Interstellar"da Hoyte van Hoytema tomonidan bajarilgan operatorlik ishi bu obrazlarni jonlantirishda markaziy o'rinni egallaydi. Kadrlar orqali fazodagi sukunat, yer sayyorasidagi halokatli muhit, vaqt va makon o'rtasidagi paradokslar juda aniq ifodasini topgan bo'lib, nafaqat texnik, balki hissiy yondashuvni ham talab qiladi.



lar juda aniq ifodasini topgan bo'lib, nafaqat texnik, balki hissiy yondashuvni ham talab qiladi.

Quyidagi kadrlar "Interstellar" filmidan olingan: (1-rasm; 2-rasm)

Film dramaturgiyasini biz kamera orqali his qilamiz. Har bir rakurs, har bir yoritish – bu dramaturgiyaning ajralmas qismi. Masalan, qahramonlar fazoviy kemada joylashgan sahnalarda tor kadrlar, past yoritish va pastki rakurslar orqali insonning cheksizlikdagi yolg'izligi ifodalanadi. Bu kadrlar yordamida tomoshabin voqeani ko'rmaydi, ammo ushbu yolg'izlikni sezadi.

Ilmiy fantastik filmni yaratuvchi kuchlardan yana biri – bu grafika, ammo grafika faqat



vizual go'zallik uchun emas. U operatorlik kamerasi bilan uyg'unlashganda, haqiqiy sinergetik ta'sir yuzaga keladi. "Interstellar"dagi qora tuynuk (black hole) sahnalari ilmiy asosda yaratilgan, ammo uni kameraga olish o'rnini kompyuter grafikasi egallaydi. Shunga qaramay, kadrlar klassik kinematografik tuzilmani yo'qotmagan: kompozitsiya, fokus chuqurligi, vaqtdagi uzilish, bularning barchasi operator nigohi bilan muvofiqlashtirilgan.

Montaj esa bu vizual she'ning ritmini belgilab beradi. Interstellar filmidagi vaqt o'tishlari, koinot va yer orasidagi tafvutlar o'zining montaj uslubi orqali tomoshabinga sezdiriladi. Operator suratga olgan har bir sahna keyinchalik montaj orqali voqeliklar o'rtasida uzviylik hosil qiladi.

Ilmiy fantastik janrda kinooperator juda muhim rol o'ynaydi, chunki bu janr ko'pincha: murakkab vizual effektlar; kelajak olami; texnologik mo'jizalar; yorug'lik va kompozitsiya orqali dramatik kayfiyat talab qiladi. Operator ushbu visualni chiqarib berishi kerak.

Ilmiy fantastikada operator – bu oddiy voqeani hujjatlashtiruvchi emas, balki real bo'lmagan olamni tomoshabin ongiga olib kira oluvchi yaratuvchidir.



Nukusda hisobot konsert va "Kelajak yoshlari"



O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filialining 2024-2025-o'quv yili yakuni bo'yicha **hisobot konserti** bo'lib o'tdi. Tadbir Berdaq nomidagi Qoraqalpog'iston davlat akademik musiqali teatrida tashkillashtirildi. Unda O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirining birinchi o'rinbosari A.Tadjixanov, Qoraqalpog'iston Respublikasi Madaniyat Vaziri B.Temirbaev hamda filialning professor-o'qituvchilari, talaba yoshlari qatnashdilar.

Professor-o'qituvchilar va talaba yoshlar o'quv yili davomida olgan bilim, ko'nikma va malakalarini sahnada namoyish qilib, yig'ilganlarda alohida taassurot qoldirdilar. Vatan, do'stlik va muhabbatni tarannum etuvchi kuy-qo'shiqlar ijro etilishi, tomoshabinlarga yuqori kayfiyat bag'ishladi.

Tadbir yakunida ishtirokshilarga kelgusi o'quv faoliyatiga ulkan zafarlar tilagan holda, tashakkurlar izhor qilindi.

Dilnaz ORAZBAYEVA,
O'zDSMI Nukus filiali
Madaniyat va san'at sohasi
menejmenti 2-bosqich magistranti

Shuningdek, 26-iyun kuni O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori, professor Nodirbek Sayfullayev institutning Nukus filialida 2024-2025-o'quv yilini muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarga diplom topshirishga bag'ishlangan **"Kelajak yoshlari"** nomli tadbirda ishtirok etdi.

Marosimda so'zga chiqan Nodirbek Sayfullayev bitiruvchi-yoshlarning kelgusi faoliyatlarida omad tiladi hamda bugun yoshlarga keng imkoniyat yaratish, ayniqsa, bitiruvchilarni ish bilan ta'minlash davlatimiz rahbarining e'tiborlarida ekanligini, yoshlar ham bu imkoniyatlardan unumli foydalanishlari, eng muhimi esa yurtimiz san'ati va madaniyati rivojiga munosib hissa qo'shishlari lozimligini haqida so'z yuritdi.

Tadbirda bakalavr diplomlarini topshirish bilan birga, talabalik davrida o'z namunali xulqi va bilim salohiyati, intiluvchanligi bilan tengdoshlariga o'rnak bo'lgan talaba-yoshlar hamda faoliyati bilan filial rivojiga hissa qo'shib kelayotgan pedagoglar va xodimlardan bir guruhini taqdirladi.

Yakunlanayotgan joriy o'quv yilida O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filialini jami 447 nafar bitiruvchi, shundan bakalavriatning kunduzgi ta'lim yo'nalishlari bo'yicha 195, sirtqi ta'lim yo'nalishlari bo'yicha 249 nafar talaba, magistratura mutaxassisliklari bo'yicha 3 nafar magistrant tamomlamoqda.

Taqdirlash marosimida konsert dasturi namoyish etilib, unda filial jamoasi tomonidan ijro etilgan kuy-qo'shiqlar hamda sahnaviy chiqishlar yig'ilganlarga bayramona kayfiyat ulashdi.

DILNAZ



Nargiza ASADOVA,
Madaniyat va san'at sohasi
menejmenti mutaxassisligi
magistranti,
O'zbekiston Yozuvchilar
uyushmasi a'zosi

1.

Tun...
Uy burchida uxlar musicha,
Poloponlarini quchib, bexadik.
Narsalarin yig'ar,
Uxlamay picha
Yo'lga deya onam
Ko'rar tadorik.
Sahar...
Quyosh hali ko'tarmagan bosh,
Nur tushmagan hali qush inchasiga.
Nozik yelkasiga
Dunyoning yugin,
Ortib borar onam...
Cho'ng ko'chasiga.

2.

Kimdir xo'rsinadi ketsa omadi,
Kimdir baxtni oldindan sezar,
Kimni cho'chitadi o'zin soyasi,
Meni esa asli, shu ko'zlar ezar...

3.

Chirog'i yoniq uy...
Ikkinchi qavat
Derazaga asta uriladi qor.
Mung'ayib ochilar,
Shu damda eshik
Kirib kelar ayol
Horg'in, bemador.
Qizi quvonadi,
Dasturxon tuzar,
Issiq choy uzatar
Muzdek qo'llarga.
So'zlasa qiz tinmay
Gullar haqida,
Ayol o'y suradi
Qarab yo'llarga.
"O'qishlaring qalay, dilbandim?", – deydi,
Tundek cho'kayotib bolishlariga.
Ustini yoparkan onasin qizi,
Yig'laydi boqib,
Xo'l kalishlariga...

4.

Kutadi chiqib eshik oldida,
To'xtagan ulovga intiq boqadi.
Axir keladi-da bugun qarog'i,
Non yopar tandirda, o'choq yoqadi.
Dunyoda diydordan aziz narsa yo'q,
G'ussaga ko'mdim-a, sho'rlik onamni.
Rosti, men ortmadim ko'ngil bazmidan
Bugunchi o'ylayman, faqat bolamni.
Qachon o'ylayman, endi onamni?!..

5.

Sog'inch yuragimni
Yetaklab borsa,
Tanimay turmasmi
Bolalik xonam.
Nahot, bir umr
Pichirilab o'tsam,
Ko'zlariga boqib,
"Bechora onam!.."

Muassis:

**O'zbekiston davlat san'at va
madaniyat instituti**

Bosh muharrir

Baxtiyor YAKUBOV



Tahrir hay'ati:

Hamdam ISMOILOV,
Oybek DAVLATOV

Muharrir:

Dilnoza QURBONOVA

Sahifalovchi:

Abdug'ani SODIQOV

Tahririyat manzili: 100164 Toshkent shahri,
Mirzo Ulug'bek tumani,
Yalang'och mavzesi, 127 A uy.
Telefon: (71) 230-28-03.
(71) 230-28-13.

www.dsmi.uz;
nashriyot@dsmi.uz

O'lchami – A3, hajmi 4 bosma taboq.
Gazeta 1.07.2025-yilda topshirildi.

Gazeta Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasida № 02-00166
raqami bilan 2012-yil 19-dekabrda ro'yxatga olingan.

Gazeta elektron ko'rinishda havola etilmoqda